

RESPUBLIKADA XIZMATLAR SIFATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ORQALI XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Ikromov Elyor Ibodulloevich

Osiyo xalqaro universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasini o'qituvchisi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: Xizmat ko'rsatish, servis, Milliy iqtisodiyot, YaIM, bandlilik, eksport, turizm xizmatlari, xalqaro yuk tashish.

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ichki bozorlarimizda xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish orqali xizmatlar eksportini rivojlantirish istiqbollari uchun sharoit yaratib berdi. Ushbu xizmat turlariga xaridorlarga sotishdan keyingi xizmat ko'rsatish, bepul ma'lumot berish, maishiy texnika va mashinalarga sotishdan oldin va sotishdan keyin bepul texnik ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kabilar kiradi. Oxirgi yillarda ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar ishlab chiqarilishining oshishi, xizmatlarning sifati yaxshilanishi, xizmatlarning xalqaro savdoda rivojlanishi va ushbu sohada aholining bandligi oshib borayotganini kuzatishimiz mumkin.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Bugungi kunda global iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va bunga asosan eksportni rivojlantirish orqali erishish ahamiyati tobora ortib borayпти.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev bejizga " ... mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini yanada rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish 2017- 2025 yillarda so'zsiz hal qiluvchi faoliyat yo'nalishiga aylanishi zarur" deya ta'kidlab o'tmaganlar.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha

—Harakatlar strategiyasilda ham hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko'lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Eksportni rivojlantirishda xizmatlar sohasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, xizmatlar sohasi milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mintaqada xizmatlar eksportini rivojlantirishni maqsad qilar ekanmiz, avvalo, eksport qilinadigan xizmat turlarini chuqur o'rganishimiz lozim.

Rossiyalik tadqiqotchi Ye.M.Denisovning fikricha eksport xizmatlari tarkibi ikkiga bo'linadi: *asosiy va qo'shimcha eksport xizmatlari*.

1. Asosiy eksport xizmatlari xalqaro bozorda iste'molchi talabini nomoddiy ko'rinishda qondiruvchi xizmatlardir:
 - Ilmiy - texnika sohasidagi almashinuv (patent, litsenziya, nou - xau shaklidagi savdo);
 - texnik xizmatlar almashinuvi (konsultativ va qurilish-injinirov);
 - ijara xizmatlari (asosan lizing);
 - turizm xizmatlari;
 - informatsion va boshqaruv sohasidagi konsultativ xizmatlari;
 - kinofilm va teleko'rsatuvlar almashinuvi.
2. Qo'shimcha eksport xizmatlari xalqaro savdoda tovarlar oldi-sotdisi jarayonida yuzaga keladigan iste'molchi talabini moddiy ko'rinishda qondiruvchi xizmatlardir:
 - xalqaro yuk tashish;
 - transport-ekspeditorlik xizmati;
 - yuklarni sug'urta qilish;
 - xalqaro yuk tashishda yuklarni saqlash;
 - xalqaro hisob-kitoblar.

Respublikamiz xizmatlar ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha katta salohiyatga ega ekanligiga qaramasdan, bugungi kunda bu salohiyatdan to'liq foydalanilmayapti. Fikrimizcha, bu muammoni bartaraf etish uchun va iqtibolda xizmatlar eksportini rivojlantirish uchun tashqi bozorda xizmat ko'rsatishning xususiyatlarini e'tiborga olishi zarur. Xizmatlar eksportini rivojlantirishda mintaqa hususiyatlaridan kelib chiqish lozim, ya'ni har bir viloyatimizda mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda hudud uchun maxsus yo'l xaritasi ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Respublikamizga hos bo'lgan hususiyatlardan yana biri yuk tashish xizmatlaridir. Ammo, tan olishimiz lozimki, yuk avtomobil xizmatlarining samaradorligi quyidagi bir qancha omillar sabab pasaymoqda:

- yuk tashish bo'yicha samarali qonunchilik mexanizmlarining mavjud emasligi;
- asosiy capital eskirishining yuqori darajaligi, xorijiy mamlakatlar texnik talablariga javob beruvchi infratuzilmalarning yo'qligi;
- yoqilg'i narxlarining yuqoriligi;
- yuk tashish sifati va xavfsizligi darajasining pastligi;
- samarali logistik texnologiyalarning mavjud emasligi;
- muqobil yo'qilg'ida ishlovchi avtotransport vositalarining mavjud emasligi;

Agar mamlakatimiz Markaziy osiyoning qoq markazida joylashganligini inobatga oladigan bo'lsak, mavjud tranzit yuk tashish xizmatlarini to'liq eksport qila olmayotganligimiz iqtisodiyot ruvoji uchun juda salbiy holat.

Respublikamiz xizmatlar eksportida bir qator hal qilinishi lozim bo'lgan jiddiy muammolar mavjud va bu muammolarni bartaraf etishga quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur:

- respublikada xalqaro yuk tashish bozorini shakllantirish uchun zamonaviy talablarga javob beradigan infratuzilmani yaratish lozim. Bular qatoriga axborotlashtirish markazi, logistik omborxonalar hamda terminallar va hokazolar kiradi;

- turizm xizmatlari eksportini yanada rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim.
- meditsina xizmatlari eksportini yo'lga qo'yilishiga ahamiyat berishimiz kerak. Xususan Markaziy osiyodagi qo'shni davatlarimiz Qozog'iston, Qirg'iziston, Avg'oniston, Tojikiston, Turkmaniston Respublikalariga tibbiy xizmatlarimizni reklama qilishimiz, maxsus marshrutlar tashkil qilishimiz mumkin;
- ta'lim xizmatlari eksportini yo'lga qo'yishimiz lozim. Buning uchun o'z o'qituvchilarimizni xorijga chiqarishimiz, chet el talabalarini mahalliy oliygohlarimizga jalb qilishimiz kerak.

Umuman olganda yuqoridagi barcha xizmatlar bir-biri bilan bog'liq tarzda rivojlanadi, biri boshqasini to'ldiradi (misol uchun, turizm xizmatlari eksporti o'z navbatida transport hamda moliyaviy xizmatlar eksportini vujudga keltirish va rivojlantirishga zamin yaratadi). Shuni alohida ta'kidlash joizki, xizmatlar eksporti tovarlar eksportiga qaraganda ancha samarali hisoblanadi. Buning asosiy sababi, xizmatlar ko'rsatishga katta capital qo'yilmalarning talab etilmasligidir.

Shuning uchun ham respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni maqsad qilar ekanmiz, birinchi navbatda xizmatlar eksportining samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq. Bu o'z navbatida, mintaqaga kirib keladigan xorijiy valyuta oqimini ko'paytiradi, to'lov balansini musbat saldoga erishishini ta'minlaydi, yalpi ichki va yalpi milliy mahsulot hajmini oshiradi va hokazo. Bularning barchasi aholining turmush farovonligini yaxshilashga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Ikromov, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MANAGERIAL WORK IN THE USE OF MODERN MANAGEMENT PRINCIPLES AND METHODS. *Modern Science and Research*, 3(1), 18-23.
2. Ikromov, E. (2024). CLASSIFICATION OF LEADERSHIP STYLES IN THE MODERN MANAGEMENT SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(2), 615-621.
3. Ikromov, E. (2023). PROBLEMS IN IMPROVING THE FORECASTING OF LOCAL BUDGET REVENUES. *Modern Science and Research*, 2(10), 794-797.
4. Akbarovna, N. N. (2024). OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF CRYPTOCURRENCIES IN THE DIGITAL ECONOMY. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 320-326.
5. Akbarovna, N. N., & Bahodirovich, X. B. (2023). AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARINI TUZISH TARTIBI.
6. Shamsiya, A. (2023). HR MANAGEMENT AND COACHING IN THE INNOVATIVE ECONOMY AS A METHOD OF BUSINESS MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 2(10), 712-717.
7. Abidovna, A. S. (2024). FORMATION AND DEVELOPMENT OF CAREER AS PERSONNEL TECHNOLOGY OF HUMAN RESOURCE MANAGEMENT. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 327-332.
8. Toshov, M. (2024). STRATEGIC MANAGEMENT OF HIGHER EDUCATION. *Modern Science and Research*, 3(2), 461-468.
9. Toshov, M. (2024). PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(2), 603-608.
10. To'rayevna, S. N. (2024). YANGI IQTISODIYOT VA UNING MOLIVA BOZORLARIGA TA'SIRI. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 333-339.

11. Odikova, N. (2024). THE MAIN DIRECTIONS OF PROVIDING THE BUSINESS SECTOR WITH QUALIFIED PERSONNEL. *Modern Science and Research*, 3(1), 133-139.
12. Rasulova, N. N., & Jumaeva, Z. K. (2019). Uzbekistan oil and gas industry: history and development prospects. *Теория и практика современной науки*, (5 (47)), 52-57.
13. Жумаева, З. К. (2019). СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕГИОНАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. In *СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ* (pp. 148-152).
14. Khalilov, B. (2024). FOREIGN EXPERIENCE IN PERSONNEL MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 974-978.
15. Xalilov, B. (2024). COBB-DOUGLAS PRODUCTION FUNCTION AND ITS IMPORTANCE IN BUSINESS MATHEMATICS AND ECONOMIC ANALYSIS. *Modern Science and Research*, 3(1), 754-758.
16. Raxmonqulova, N. O. (2022). THE IMPACT OF THE DIGITAL ECONOMY ON RESOURCE CONSUMPTION. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 476-480).
17. қизи Рахмонқулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ҲУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. "Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 6(14).
18. Базарова, М. С., Шарипова, М., & Нуруллоев, О. (2021). "РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ" ДА АҲОЛИНИНГ ИШ БИЛАН БАНДЛИГИ ХУСУСИЯТЛАРИ. САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ, 482.
19. Базарова, М. С. (2020). Развитие внимания дошкольников посредством дидактических игр. In *Исследования молодых ученых* (pp. 37-40).
20. Khudoynazarovich, S. A. (2022). Features of evaluating the effectiveness of activities at the Bukhara State University. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 153-159.
21. Shadiyev, A. (2022). FEATURES OF EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF ACTIVITIES AT THE BUKHARA STATE UNIVERSITY. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 23(23).
22. Qudratova, G. (2024). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE ACTIVITY IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Modern Science and Research*, 3(2), 1257-1261.
23. Qudratova, G. (2024). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE POTENTIAL IN INCREASING COMPETITIVENESS. *Modern Science and Research*, 3(1), 933-938.
24. Jumayeva, Z., & Nozimova, A. (2023). Palyno-Morphological Study of Allergenic Flora of Samarkand, Uzbekistan. *American Journal of Plant Sciences*, 14(5), 533-541.
25. Jumayeva, Z. (2024). THE MAIN WAYS OF EFFECTIVE WORK ORGANIZATION IN THE MODERNIZATION OF THE ECONOMY. *Modern Science and Research*, 3(2), 366-370.
26. Ibodulloevich, I. E. (2023). Mahalliy Budget Daromadlarini Prognozlashtirishni Takomillashtirishdagi Muammolar.
27. Алимова, Ш. А., & Халимова, Д. Р. (2021). СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ СТРАТЕГИЙ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. In

Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации (pp. 340-344).

28. Alimova, S. (2024). THE IMPACT OF E-ACCOUNTING IN MODERN BUSINESSES. *Modern Science and Research*, 3(1), 928-932.
29. Mirzabek, T. (2023). Marketing Kommunikasiyalari Tizimida Og'r Muloqotlar Xususiyatlari. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(14), 388-391.
30. To'rayevna, S. N. (2024). YANGI IQTISODIYOT VA UNING MOLIYA BOZORLARIGA TA'SIRI. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 333-339.
31. Khalilov, B. (2023). FINANCIAL INDICATORS OF BUSINESS EFFICIENCY IN COMPANIES. *Modern Science and Research*, 2(10), 835-839.
32. Khalilov, B. (2023). FINANCIAL ELEMENTS OF BUSINESS STABILITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 877-882.
33. Raxmonqulova, N. (2024). MAIN PRIORITY DIRECTIONS OF REGIONAL ECONOMY DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 371-375.
34. Supievnova, B. M., & Firuza, S. (2023). STRATEGIC WAYS OF IMPLEMENTING PERSONNEL POLICY IN COMMERCIAL BANKS. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 1(7), 22-25.
35. Akbarovna, N. N. (2023). BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIYOTDA TURGAN ORNI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 517-520.
36. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2023). Oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish. *Science and Education*, 4(7), 476-481.
37. Jumayeva, Z., Nurullayeva, N., Nozimova, A., Tursunboev, X., & Dosjanova, G. (2024). Dynamics and characteristics of allergenic plant pollen in the Republic of Uzbekistan. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 498, p. 02015). EDP Sciences.